



THE IMAGE OF THE PERFECT HUMAN IN THE SUFI VIEWS OF KHOJA AHROR VALI

Kholidakhon Rakhmatova

*Professor, Doctor of Philosophy (DSc)
Bukhara State Pedagogical Institute
Uzbekistan, Bukhara*

ABOUT ARTICLE

Key words: Khodja Akhror Wali, mysticism, enlightened society, patience, gratitude, conversation, humanity, value of time, tolerance, ego, self-awareness, man, perfect man.

Received: 09.05.25

Accepted: 11.05.25

Published: 13.05.25

Abstract: The article reveals the unique features of the perfect man in the mystical views of Khoja Akhror Vali, an outstanding representative and continuer of the teachings of Naqshbandi, and the importance of nurturing the ideological immunity of the perfect generation in creating an enlightened society in the conditions of New Uzbekistan. The philosophical and mystical views of Khoja Akhror Vali about man and the Creator, man and being, man and society are analyzed.

XOJA AHROR VALIY TASAVVUFİY QARASHLARIDA BARKAMOL INSON SIYMOSI

Xolidaxon Raxmatova

*professor, falsafa fanlari doktori(DSc)
Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbekiston, Buxoro*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xoja Ahror Valiy, tasavvuf, ma'rifatli jamiyat, sabr, shukr, suhbat, insoniylik, vaqt qadri, murosayu madora, nafs, o'zlikni anglash, inson, barkamol shaxs.

Annotatsiya: Maqlolada Naqshbandiuta'l-limotining yirik vakili va ta'lilotning davomchisi Xoja Ahror Valiyning tasavvufiy qarashlarida barkamol inson siymosining o'ziga xos xususiyatlari, Yangi O'zbekiston sharoitida ma'rifatli jamiuatni barro yetishda barkamol avlod mafkuraviu immunitetini tarbiyalashdagi ahamiuati ochib berilgan. Xoja Ahror Valiyning inson va Yaratuvchi, inson va borliq, inson va jamiyat haqidagi falsafiy-tasavvufiy qarashlari tahlil qilingan.

ОБРАЗ СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕКА В СУФИЙСКИХ ВЗГЛЯДАХ ХОДЖИ АХРОРА ВАЛИ

Холидахон Рахматова

Профессор, Доктор философских наук (DSc)

Бухарский государственный педагогический институт

Узбекистан, Бухара

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ходжа Ахрор Вали, мистицизм, просвещенное общество, терпение, благодарность, беседа, человечность, цена времени, толерантность, эго, самосознание, человек, совершенный человек.

Аннотация: В статье раскрываются уникальные особенности совершенного человека в мистических воззрениях Ходжи Ахрора Вали, выдающегося представителя и продолжателя учения Накшбандия, и значение воспитания идеологического иммунитета совершенного поколения в создании просвещенного общества в условиях Нового Узбекистана. Анализируются философские и мистические взгляды Ходжи Ахрора Вали о человека и Творца, человека и бытие, человека и общество.

KIRISH

Komil inson tushunchasi – milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillaridan biri. Komil inson g‘oyasi va uni amalga oshirishga bo‘lgan intilish insoniyat sivilizatsiyasining ma’no-mazmunini tashkil qilgan. Komil inson haqidagi ta’limot insonning ma’naviy, axloqiy, intellektual va jismoniy nuqtai nazaridan yetuklik darajasiga ko‘tarilishini ko‘zda tutadi. Yurtimizda komil insonni voyaga yetkazish masalasiga azaldan katta e’tibor bilan qaralgan. Shuning natijasi o‘laroq tariximizda o‘zining ma’naviy fazilatlari, jismoniy imkoniyatlari bilan jahon ahlini hayratga solgan buyuk barkamol insonlar ko‘plab yetishib chiqqan. O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” asarida quyidagi fikrlar keltirilgan: “Inson kadrini ulug‘lashga qaratilgan sharqona falsafa va g‘oyalar bugungi kunda ham o‘zining nazariy va amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. Biz donishmand ajdodlarimizning asrlar sinovidan o‘tgan bebaho ilmiy ma’rifiy merosiga tayangan holda, xalqimiz tafakkurini zamonaviy umumbashariy ruh bilan boyitishimiz zarur”. [1;208]

Ulug‘ ajdoddlardan bizgacha qadrlanib kelingan ilmlardan biri tasavvuf ilmi bo‘lib, barkamol insonni tarbiyalashda tasavvufning o‘ziga xos o‘rni mavjuddir. Tasavvuf allomalari komil inson timsolida oqil va dono, kamtar va oljanob, haqiqatparvar va fidoyi zotlarni ko‘rganlar. Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan kishilar yuksak darajada mushohada yuritish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ularda aql oddiy so‘z va tushunchalardan emas, balki diyonat,adolat, imon, ishq, dard kabi fazilatlar mujassamidan tashkil topadi, deb hisoblaganlar. Hozirgi zamon falsafasi inson

muammosiga maxsus e'tibor qaratmoqda. Maqlada mutasavvif Xoja Ahror Valiy falsafiy qarashlarining barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Xoja Ahror Turkiston va Xurosonda tutgan siyosiy va ijtimoiy yuksak maqomidan gashqari, o'zidan qoldirgan irfoniy fiqrlar va qimmatbaho asarlari bilan ham. diqqat va e'tibor markazida turadi. Xoja Ahror (erkin kishilarning sardori) va Nosiruddin (Dinning yordamchisi) laqablari bilan shuhrat qozongan Xoja Ubaydullo naqshbandiya tariqatining buyuk murshidlaridan hisoblanadi. U mavlono Sa'duddin Qoshg'ariy vafotidan keyin, irshod maqomiga ega bo'lib, naqshbandiya tariqatini rivojlantirgan va uning ta'limotini yuksak darajalarga ko'targan. [2;106] Xoja Ahror Valiy naqshbandiya ta'limotini jahoniy darajaga ko'targan mutafakkir sifatida ma'lum va mashhurdir. Uning asarlarida inson, insoniylik va insoniy haqiqat tushunchalariga maxsus e'tibor berilgan.

Tahlil va tadqiqot natijalari

Inson kamolotining asosiy mezonlaridan biri uni o'zligini anglashidir. Barkamol insonning mezonlariga doir tasavvufiy g'oyalar Xoja Ahror Valiyning asosan "Risolai Validiya" va "Fiqrati Ahroriya" asarlarida yoritilgan. "Fiqrati Ahroriya" asari "Faqarotu-l-orifiyn" nomi bilan ham ma'lumdir. [8;24] Mutasavvif o'z asarida insoniylik tushunchasini ko'p ishlatadi. U "insoniylikning eng katta maqsadi zohirni yomonliklardan xalos qilish, buyruqlarga itoat qilish hamda botinni o'y-fikrlardan tozalashdir, toki dilga Haqning saltanati tajalliy qilsin, dilni g'ayrning shuuridan ozod aylasin"[7;51] deb, Fiqrati Ahroriyani "bashariyat aloqalaridagi iflosliklardan dil va badan tozalanishiga sabab bo'lsin" maqsadida yozganligini ta'kid etadi.

Iqtiboslar tahlili ko'rsatadiki, Xoja Ahror insonni zohir va botinining uyg'unligidan iborat deb qaramoqda. Inson zohiri uning tashqi ko'rinishi, shakli bo'lib, uning yomonliklari inson botini, qalbiga ta'sir etadi. Botin insonning ichki olami, mazmun-mohiyati, uni hissiy organlar bilan bilish qiyin, tafakkur va intuitsiya bilan anglash mumkin. Botinni o'y-fikr va keraksiz bog'lanishlardan tozalash zohirni go'zal, nurli qiladi. Inson zohiri – yuzi, muomalasi, o'tirib-turishi botiniy holatiga bog'liqdir. Xoja Ahror zohirni badan va botinni dil, qalb deb, ularni poklash insonni insoniy sifatni olishiga va insoniylik holatida bo'lishiga yordam beradi degan. Demak, haqiqiy inson zohiran va botinan pok, badan va qalbi tozadir. Bu mazmunda Xojai Jahon nomi bilan mashhur xojagon tariqati asoschisi Abdulkholiq G'ijduvoniy ham shunday yozganlar:

Pokiza xisol boshi andar hama hol,

Ki az xislati pokiza shavad ahli kamol.

Behtar zi rizogii Haq chi yobad banda?

Rozi ast Xudo zi mardi pokiza xisol.

Mazmuni:

Barcha hollarda pokiza xislatli bo'lgan,

Chunki kamol ahli pokiza xislat ila bo‘ladi.

Banda uchun Haq roziligidan yaxshiroq nima bor?

Xudo pokiza xislatli Marddan rozidir. [3;51]

Xoja Ahror insonlarni uch toifaga bo‘ladi: 1.Mardlar. 2.Insoniylik sifatidagi insonlar. 3.Insoniyligi bo‘limganlar – hayvonlar. Bu ma’noda u shunday yozadi: “Ey, Inson. Harakat qil, toki insoniylik martabasidan o‘tgaysan va mardlik maqomiga yetgaysan. Sen Inson kimu Mard kimligini bilmog‘ing kerak. Bilginki, inson “Johadu fiyno (“Bizning yo‘limizda jiddu jahd aylagan”) maydonida “Lo” (yo‘q) tig‘ini qo‘lga olgan muborizdir. U Allohning dushmanlari nafs va shayton bilan birga jangga kirishgan. Mard esa tavhid tig‘i ila g‘ayrning boshini olgan g‘oziydir. U jangu jadal qilishdan forig‘ bo‘lgandir. Bul ikkisidan boshqa yana bir toifa borki, ularni chorpolar qatoridan sanasa ham bo‘ladi.” [7;60] Demak, Xoja Ahror insoniy darajadagi insonlar deganda nafsi yomonligi va shayton vasvasasiga qarshi jiddu jahd bilan kurashadigan odamlarni tushungan. Mardlar esa insoniylik maqomidan yuksalib, nafs yomonliklaridan to‘la g‘alaba qozonib, zohiriya va botiniy quvvatlarini o‘z tasarrufiga olgan xos kishilardir. Nafs quli va shayton o‘yinchog‘i bo‘lganlar shaklan odam zotiga o‘xshasalar ham, ularni mazmun – mohiyatan Xoja Ahror chorpolar ya’ni hayvonlar deb, A’rof surasi, 179 oyati – “Ular (kofirlar, mushriklar) hayvonlar kabidirlar, balki hayvonlardan ham badtardirlar”–ni asos qilib keltiradi.

Xoja Ahror Valiy bu ma’noni “Javomi’ ul-kalim” nomi bilan ataluvchi oxirat uchun zaruriy kalimalar – hikmatli so‘zlar majmuasida ham bayon etgan. U yozadi: “Kishilar uch toifadurlar: Avliyoki, botinlari zohirlaridan yaxshidir. Ulamoki, zohirlari va botinlari barobardir. Johillarki, zohirlari botinlaridan yaxshidir”. [6;330] Bu kalima bilan yuqoridagi g‘oyani taqqoslasak, avliyolarni mardlar bilan bir deydi. Tasavvuf ahli ko‘pincha avliyolarni mard yoki eranlar deganlar. Aytish lozimki bu tushuncha inson jinsiga nisbatan emas, insoniylikni botinda naqadar yuksakligiga ishoratdir. Ulamolar deganda zohir va botini uyg‘un, mos, ya’ni insoniy sifatli, o‘z nafsini tanib, unga qarshi tura oladigan kishilar tushunilmoqda. Johillar zohiri inson zotiga o‘xhash, shuning uchun yaxshi, lekin botinan hayvon sifatidagi kishilardir.

Xoja Ahror mardlarga yana shunday ta’rif bergan: “Mardlik uldurki har kim sanga yomonlik qilsa, o‘rniga yaxshilik qil! Va har kim sendan uzulsa, yopishg‘il! Va har kim seni noumid qilsa, anga ehson qil!” [6;330] Demak, mutasavvifning ta’kidlashicha, mardlar ilohiy sifatlar bilan bezangan va barchaga ezbilik qilishga qodir bo‘lgan kishilardir. Xoja Ahror inson insoniylik darajasida bo‘lishi uchun g‘aflatga qolmasligi, nafs va shaytondan ogoh bo‘lishi lozim ekanligini uqtirgan. Xoja Ahror: “G‘aflat uyqudandir va uyqu suvdan va suv (ko‘b) taomdin. Har kimki, kam yesa hozir bo‘lg‘ay va har kimki ko‘b yesa g‘ofil bo‘lg‘ay” [6;340], deb taom yemakka doir qator quyidagi o‘gitlarni aytganlar:

- Me'da taomni joyidur. Har nimaeki, anga yuborsang, agar halol bo'lsa toatga quvvatduri. Va agar shubhali bo'lsa Haq yo'lin sanga berkitur. Va agar harom bo'lsa, ma'siyat tug'or.

- Taomni andog' yegilki, san ani yegaysan, na ul sani yegay. Agar san oni yesang hammasi nur bo'lur va agar ul sani yesa hammasi zulmat bo'lur. So'fiylarni "nafsi o'lik, qalbi tirik" deb ta'riflaganlar. Xoja Ahror ham nafsga shunday ta'riflar bergan: "Har narsa to tirikdur tozadur. Vaqteki o'lsa, nafski bo'lur, magar nafski tirik bo'lsa, nafskdur va o'lsa pokdur", "Haq subhonahu va taolo buyururki, "Va a'riz anil-johiliyn", ya'ni yuz o'girgil nodonlardin. Nafs nodonlarning nodonrog'idir, kerakdurki, andin yuz o'girsang va xilofin olsang". [6;341] Inson haqiqiy insoniy, asliga uyg'un bo'lishi uchun nafsin yomonliklarini anglashi, unga qarshi turish lozim.

Xoja Ahror insoniylik haqiqati degan masalaga maxsus e'tibor beradi. U – "Insoniylik haqiqati Haq subhonahudan boshqaga muhabbat va mayl aralashmalaridan xoli bo'lish" [7;66] - ekanligini yozadi. Xoja Ahror muhabbat va mayl insonda Haqga ham g'ayrga ham bo'lishi mumkin deb, g'ayrning zotiga ibodat qilish g'ayrga muhabbat va mayl ekanligiga va g'ayrga mansub bo'lish va hoyu havas etagini ushslashligini ta'kid etadi.

Nafs istagi yeish, kiyish, zeb-ziynat, shahvat, mol-dunyo kabilarga me'yordan ortiq bog'lanish insonni tubanlashtiradi. U mol-dunyo, mansab, nafs istaklari uchun hayvoniyl holatga tushadi. "Haqiqiy maqsad odamzot Haqdan boshqaga giriftor bo'lishdan xalos bo'lsin", "insoniylik haqiqati Haq subhonahudan boshqaga giriftor bo'lishdan ozod bo'lish" [7;66] ekanligini Xoja Ahror ta'kid etadi.

Xoja Ahrorning bu ta'riflaridan ma'lum bo'ladiki, u insonni ilohiy sifatli mavjudot deydi va shuning uchun ham ilohiylikka uyg'un harakatni unga mos deb hisoblaydi. Ilohiy sifatli inson butun borliqni Haq nazari bilan ko'radi va uni e'zozlaydi. Bunday insonni nazari baland, o'zi juda yuksak martabada bo'ladi.[3;19]

Xoja Ahror insoniylik haqiqatiga erishish uchun sa'y-harakat, himmat va vaqtga e'tiborni zarur, deb hisoblaganlar. "Kunlarni behuda o'tkazmaslik kerak. Umrni shunday narsaga sarf qilmoq lozimki, sendan maqsad shul bo'lsin. Sening kamoling o'shandadir" [7;120,121] deb, u har bir inson o'z hayotining mazmun-mohiyatini, o'z iste'dodini tanishi va jamiyatda o'z o'rnini topa olishi lozimligini uqtiradi. Xoja Ahror inson tana va ruhdan iboratligi va "ruhning jasadga giriftor bo'lishi" inson haqiqati ekanligini aytadi. Ruh tanaga kirganida muqaddas, ilohiy olamda bo'limgan narsalar unda hosil bo'ladi. Chunki tananing talablarini nafs aks ettira boshlaydi va turli hijob, parda, bog'lanishlar paydo bo'ladi. Natijada inson o'z-o'zini anglab, sa'y-harakat qilmasa tubanlashib, zalolatga tushishi mumkin.

Insoniy haqiqatni Xoja Ahror valiylargacha tayanib, qalb va ruh bilan bog'laydi. Qalb ilohiy ishqu muhabbatga giriftor bo'lishi lozim deydi. "Ma'naviy davlat shulki, o'z dilingni shalog'ili

kavnayndan xoli qilmog‘ingdir”, [7;130] ya’ni qalb ikki dunyo bog‘lanishlaridan forig‘ bo‘lishi lozim, deydi Xoja Ahror. U “Qalb ul-mo‘min Arshullohil a’zam” – “Mo‘min bandaning qalbi Arshullohdan ham a’zam”dir hadisini keltiradi. Xoja Ahror qalbni poklashga e’tiborni qaratib shunday o‘git beradi: “O‘zingni farrosh singari tutmoq kerak. Dilni kavniy taalluqotlar xasu xashagidan tozalamoq darkor.” [7;138] Xoja Ahror farroshning supurgisi, deb - zikr ya’ni Haqni eslash ekanligini uqtiradi va shu ma’noda yozadi:

Zikr go‘, zikr to turo jon ast,

Zindagiyl dil ba zikri Yazdon ast.

Chun tu foni shavi zi zikr ba zikr,

Zikri xufiyaki, guftaand on ast. [7;133]

Mazmuni:

Zikr ayt, zikr, to tanangga joning bor,

Qalb tirikligi Yazdon-xudo zikri bilandir.

Sen zikrdan zikrgacha foni bo‘lsang,

Xufiya zikr aytganlari shudir.

Xoja Ahror fikricha, dil – qalb Haqqa ogoh bo‘lish sharafiga musharraf bo‘lsa, dilda hech narsaga o‘rin qolmaydi u g‘aflatdan uyg‘onadi. Ogohlik haqiqiylikka dalildir, deb Xoja Ahror: “Haqiqiy saodat mana shu ogohlikdan boshqacha bo‘lmaydi”, [7;134] degan g‘oyani ta’kid etadi. Bu saodatga esa insonni Xoja Ahror fikricha, xojagon-naqshbandiya ta’limoti muyassar qilishi mumkindir. Xoja Ahror inson deganda insoniylik haqiqatini anglashga e’tiborni qaratishi masalasini ko‘targan allomadir.

XULOSA

O‘zbekistonda taraqqiyotning yangi bosqichi davrida ma’rifatli jamiyat qurish zarurati yuzaga chiqdi. Bu esa yangicha falsafiy dunyoqarashni shakllantirishni taqazo etmoqda. Mazkur nuqtai nazardan Xoja Ahror Valiyning inson, insoniylik, inson haqiqati to‘g‘risidagi g‘oyalari, inson falsafasining dolzarb masalalarini biri bo‘lib, hozirgi davrda barkamol shaxsni tarbiyalashda ahamiyatlidir. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Mutasavvif inson falsafasida inson tushunchasi shakli va mazmun uyg‘unligi, o‘zaro bog‘liqligini aytgan bo‘lsa ham, mohiyat masalasiga asosiy e’tiborini qaratgan. Shuning uchun u asosan insoniylik tushunchasi bilan o‘z fikrini bayon etgan.
- Xoja Ahror Valiy insoniylikni insonning ilohiylik darajasidagi zohiran va botinan poklanishidir, ya’ni o‘z asli bilan uyg‘unlidir, deb tushungan.
- Mutasavvif insonning mohiyatiga qarab mard, inson va inson bo‘lmagan darajasidagi uch toifaga bo‘ladi.

- Xoja Ahror Valiy insoniylik haqiqati deganda haqiqiy bandalik, ya’ni faqat Haq, asl bilan bog‘lanib, o‘shanga mos uyg‘un yashashni tushungan.
- U insoniy haqiqat uchun inson muhabbat va mayl – ixtiyori to‘la ilohiy bo‘lishini zarur degan.
- Mutasavvif insoniylik haqiqatga yetishishda nafs tarbiyasi, qalb tasfiyasining o‘rni muhimligini ta’kidlagan.
- U insoniylik haqiqatini anglash uchun tor doiradagi, nafsoniy bog‘lanishlarni uzib, butun olamni ilohiy ne’mat sifatida qadrlash darajasi va holatiga yetish lozim deb hisoblaydi.
- U insoniy haqiqatga yetish uchun sa’y-harakat, himmat, vaqt qadrini bilish, ruh kamoloti va qalb pokligi, xotira va ogohlilikni muhim deb ta’kid etadi.
- Xoja Ahror Valiyning insoniy haqiqat haqidagi rashhalari, purhikmat asarlaridagi qarashlari barkamol shaxsni shakllantirishda ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ш.М.Мирзиёев. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. – Тошкент: “О‘zbekiston” нашриёти, 2024. – 560 б.
2. А.Ш.Жузжоний Тасаввув ва инсон. Масъул муҳаррир ва сўз боши муаллифи: А.Ҳ.Саидов.- Т.: “Адолат”, 2001.-192-б.
3. Г.Н.Наврӯзова, Ҳ.Ҳ.Рахматова. Нақшбандия тушунчалари генезиси. “Бухоро” нашриёти, 2010.153 б.
4. Хожа Убайдуллоҳ Ахрор. Рисолаи “Анфоси нафийса.” /Табаррук рисолалар. /Нашрга тайёрловчи, таржимон, сўз боши ва изоҳ муаллифлари – М.Ҳасаний, Б.Умрзок, Ҳ.Амин. Т.: Адолат, 2004. 38 – бет.
5. Хожа Убайдуллоҳ Ахрор. Рисолаи волидийя. /Табаррук рисолалар. 27 – бет.
6. Хожа Убайдуллоҳ Ахрор. Жавомеъул калим. /Табаррук рисолалар. 347 – бет.
7. Хожа Убайдуллоҳ Ахрор. Фикроти Ахорийя. /Табаррук рисолалар. 130 – бет.
8. Бобохонов Ш., Мансур А. Нақшбандийя тариқатига оид қўлёзмалар фихристи. Т.: Мовароуннахр, 1993. 24-25 – бетлар.
9. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.